

YOSHLAR ORASIDA JINOYATCHILIK, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA QARSHI KURASHISH USULLARI

Abdullayev Jamshidbek Ulug‘bekovich¹

¹ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi
Email: Jamshidbek877i@gmail.com

Dauletbaeva Aynur Baxramovna¹

¹ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti 2-bosqich talabasi
Email: dawletbaevaaynur0@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.05.2025

Revised: 27.05.2025

Accepted: 28.05.2025

KALIT SO‘ZLAR:

voyaga etmaganlar,
yoshlar jinoyatchiligi,
huquqbuzarliklar, yoshlar,
huquqbuzarliklar
profilaktikasi, jamiyat,
jinoyatchilik.

Mazkur maqolada voyaga yetmagan va yoshlar orasidagi jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari tahlil etilgan bo‘lib, ushbu jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlari o‘rganilgan. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish yo‘nalishlariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishning dolzarb muammolari ochib berilgan.

KIRISH. Hozirda yoshlarning ta’lim va tarbiyasi davlat siyosatining dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda bu esa hech kimga sir emas. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o‘zgarishlar zamirida har tomonlama barkamol–jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish ustuvor maqsadlarimizdan biriga aylanmoqda. Lekin shu bilan bir qatorda yoshlarning orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikliklar ko‘payib bormoqda.

Huquqbuzarlik-huquq va muomala layoqatiga ega sub'yekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. O'z xususiyatiga ko'ra, intizomni buzish shaklida bo'ladi. Ko'p hollarda huquqbuzarlik qonunbuzarlik so'zi bilan bir xilda ishlatiladi.

Jinoyat—jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlar, an'alariga muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida asosan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 169-moddasida ko'rsatilgan o'g'rilik ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish jinoyatlarni sodir etish ko'plab uchrayapti. Shuningdek, JK 166-moddada ko'rsatilgan talonchilik ya'ni o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish jinoyatlari ko'cha-ko'yda fuqarolarning qimmatbaho buyumlarini, taqinchoqlarini talonchilik yo'li bilan olib ketish kabi jinoyatlar ko'plab uchrayapti. Maktab o'quvchilarining orasida esa mayda bezorilik ya'ni Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 183-moddasidagi mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik kabi huquqbuzarlik uchramqoda. Bu jinoyatlarning eng ko'p uchrashiga sabab bu ularning hozirgi vaqtda bo'sh yurganliklari, o'qishga bormasdan, o'qishni bitirgandan keyin ish topolmasdan yoki oliy yoki boshqa o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish uchun imkoni bo'lmagan shaxslar va ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yaxshi rivojlanmaganliklaridan hamda mana shunday bekorchi yurgan yoshlar tomonidan jinoyatlar ko'p sodir etilmoqda.

Jinoyatlarning bugungi kunda kelib chiqishining o'ziga xos sabablari ham mavjud. Ko'pgina holatlarda iqtisodiy jihatlar bilan bog'lab olib ko'rishimiz ham mumkin, lekin ko'proq shu tadqiqot ishlari natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, atrof-muhitdagi shaxslarning ta'siri, yoki katta yoshdagi shaxslarning voyaga yetmaganlarni jinoyatga jalb qilish holatlari ko'proq uchraydikan. Bir misol ko'rib o'tadigan bo'lsak, jinoyatni ijro etish muassasalardan qaytib kelgan katta yoshdagi shaxs atrofiga bir to'da o'smir yoshlarni to'plab olib, ularga o'zining jinoyat olamidagi bo'lgan qiziq-qiziq voqealarni so'zlab beradi, yoki bo'lmasa ularga turli xil jinoyatlarni sodir qilish usullarini o'rgatib, ularni qiziq-tira boshlaydi. Natijada yoshlar o'rtasida uyushgan guruh tuzilib, bu guruh esa o'z g'arlar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lgan oldin mayda jinoyatlarni, keyinchalik esa katta-katta jinoyatlarni sodir qilish holatlarini keltirib chiqaradi.

Hammamizga ma'lumki, mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish eng asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi va mamlakatimizda shular bo'yicha qonun va normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qarori; Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining kengashining qarori, 18.05.2020 yildagi 274-IV-son.

Prezidentimiz takidlaganidek "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga muhosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va mas'uliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralari ko'rishimiz darkor" deb ta'kidlab, mazkur yo'nalishdagi vazifalar naqadar dolzarbligini ko'rsatib berdi.

Shuningdek, hozirda ko'pchilik mutaxassislarning fikricha huquqbuzarlik va jinoyatchilikning yuzaga kelishi ishsizlik va iqtisodiy omillarda o'z aksini ko'rsatishni aytib o'tgan.

Bugun yoshlarimizning tafakkuri, mafkurasi va dunyoqarashida juda ko'p bo'shliqlar paydo bo'lyapti. Bu bo'shliqni esa o'tkinchi g'oyalar, o'tkinchi axborotlar to'ldirib boryapti. Yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq ham sezilyapti. Ayni shu jihatlar yoshlarning orasida jinoyatchilik ortishiga sabab bo'lyapti.

Nemis faylasufi, iqtisodchisi va jamiyatshunosi Karl Marksning "Kapital" nomli asari bor. Bu asarda barcha ijtimoiy munosabatlar, hayot mazmuni va umuman barcha jarayonlar zahirida moddiyot yotadi, deyiladi. G'arbda bu nazariya qabul qilingan. Bizning jamiyatda esa u boshqacharoq.

Jamiyatimizda cheklovlar, me'yorlar moddiyotga borib taqalmaydi. Balkim ma'naviy, axloqiy va tarbiya omiliga ko'proq ahamiyat beriladi. Shuning uchun biz moddiyotni birinchi o'ringa qo'yib, yoshlarni ayblashimiz noto'g'ri.

Bu borada bir misolni keltirib o'tsak bo'ladi. 2020 yili Rossiyadagi qamoqxonalardan birining 600 nafar 20-35 yoshli mahkumlari orasida 2016 yildan boshlab o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot yakunlangan. Unga ko'ra, mahkumlarga sizni jinoyat sodir etishingizda iqtisodiy omil sabab bo'ladimi, degan savol qo'yiladi. So'rov mahkumlarning qamoqqa tushgan kundan chiqib ketguncha bo'lgan davrida uch bosqichda o'tkazilgan.

Savolga jazo muddatini o'tashni boshlagan mahkumlarning 37.2 foizi ilk bor, «ha» deya javob bergan. Bu savol o'sha mahkumlarga jazo muddatining yarmini o'tab bo'lgan vaqtda ham berilgan. Bu safar ularning 17 foizi o'sha javobni bergan.

Shu savol jazo muddatini o'tab bo'lgan mahkumlarga uchinchi bor ham berilgan va bu safar faqat 4.9 foiz mahkumlar unga «ha, jinoyat sodir etilishida iqtisodiy omil sabab bo'ladi», degan javobni bergan.

Shu sababdan, jinoyatchilikning oldini olishda moddiyatni yuqori o'ringa qo'yish fikriga qo'shilmaymiz va ko'proq ijtimoiy-ma'naviy muhitga e'tibor qaratish kerak, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jinoyat qilgan insonga oila, ota-ona, ta'lim muassasalari va jamiyat to'g'ri ijtimoiy tarbiyani, ijtimoiy cheklovlarni bermagan. Yaqinlarning yoshlarga qiziqishi yo'qligi huquqbuzarliklarning asosiy sabablaridan biridir. Ayniqsa, ota-onaning e'tiborsizligi tufayli, yoshlar huquqbuzarlik sari ilk qadamlarini qo'yadi. Yuqorida ham aytganimizdek, oila va undagi tarbiya har bir yosh uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan oilada farzand ongiga ezgu g'oyalar singdirilib borilishi va jinoyatlarning eng kichigi va eng og'irlari ham inson hayotidagi katta ijtimoiy tanazzul ekanligini tushuntirib beruvchi tarbiya muhiti shakllanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi/ <https://lex.uz/docs/-111453>.
2. 1896-III-сон 11.08.2018. Mamlakatda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurash holati to'g'risida/ <https://lex.uz/docs/-4270358>.
3. PQ-2833-сон 14.03.2017. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida/ <https://lex.uz/docs/-3141186>
4. Толипов Н.М., Рустамбекова Н.Н. Общественная опасность и криминологическая детерминация насильственной преступности несовершеннолетних // Научно-образовательный потенциал молодежи в решении актуальных проблем XXI века. 2021. № 6.
5. Шарипов С.Т., Турсунова М.М. (2022). Меры профилактики и борьбы с насильственной молодежной преступностью. Вестник науки и образования, (12-7), 79-84.
6. Khatamov B.K. (2022). Personality of a juvenile delinquent. Innovative science. No.2. pp. 31c